

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Sun‘iy intellekt yordamida Janubiy Mirzacho‘l magistral kanalidagi suv resurslarini samarali va ishonchli boshqarish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: -Janubiy Mirzacho‘l magistral kanalidagi gidrotexnika inshootlarining ishonchlilik holati aniqlanadi. -Janubiy Mirzacho‘l magistral kanaliga bog‘langan ekin maydonlari va kanaldagi gidrotexnika inshootlari parametrlarini tadqiq qilinadi. -Janubiy Mirzacho‘l magistral kanalidagi suv resurslarini ishonchli va xavfsiz boshqarishda raqamli texnologiyalari ishlab chiqiladi. - Janubiy Mirzacho‘l magistral kanalidagi suv resurslarining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimotini tahlil qilish -Raqamli texnologiyalar asosida Janubiy Mirzacho‘l magistral kanalidan suv oluvchi inshootlarni boshqarish qurilmasi yaratiladi. -Janubiy Mirzacho‘l magistral kanalining suv taqsimoti bo‘yicha suv-balans hisoblarining dasturi ishlab chiqiladi. -Sun‘iy intellekt yordamida Janubiy Mirzacho‘l magistral kanaldagi suv resurslarini samarali boshqarishning ilmiy asosi yaratiladi. -Sun‘iy intellekt yordamida ekin turi va suvga bo‘lgan talabiga qarab suv olish quloqlarni ochib yopilish dasturlari ishlab chiqiladi. -Sun‘iy intellekt yordamida Janubiy Mirzacho‘l magistral kanalidagi suv resurslaridan samarali va ishonchli boshqarish texnologiyasini ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Suv xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Suv xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma’lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Suv xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.